XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 4-iyun VII-13-115-11-162-K/25 Uchko‘prik tumani

Uchko‘prik tumani mahalliy byudjetining 2025-yil birinchi chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27 va 126-moddalariga hamda O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy byudjetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarni belgilash, mahalliy byudjet harajatlari ijrosi bo‘yicha hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning Kengash oldidagi hisobdorligi hamda mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 12-martdagi 249-IV-son qaroriga muvofiq tuman mahalliy byudjetining 2025-yil birinchi chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil birinchi chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lari **1 339,3 mln so‘mni** *(shundan, **133,7 mln so‘m** qismi yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan shakillangan)* tashkil etganligi **ma’lumot** uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 12-martdagi 249-IV-son qarorining 5-bandida mahalliy byudjet qo‘shimcha manbalaridan foydalanishda qonunchilikka qat’iy rioya qilgan holda, mablag‘larning faqatgina *(favqulodda va kechiktirib bo‘lmaydigan holatlar bundan mustasno)* xalq deputatlari mahalliy Kengashlari qarorlari asosida yo‘naltirilishini ta’minlash ko‘rsatib o‘tilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil birinchi chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismidagi mavjud mablag‘lar hisobidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-martdagi PQ-5072-son qaroriga asosan, Ochiq byudjet jamg‘armasiga yo‘naltirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2022-yil 12-13-may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan majlis bayonining 145-bandiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-son va 2017-yil 9-yanvardagi PQ-2722-son qarorlariga hamda xalq deputatlari tuman Kengashining 2025-yil 23-yanvardagi VII-5-12-11-162-K/25-son qaroriga asosan tuman hokimligi va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlarini moddiy rag‘batlantirish, ish samaradorligi va mas’uliyatini yanada oshirish, xodimlarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ular o‘rtasida korrupsiyaviy muhitni shakillanishini oldini olish maqsadida ishchi-xodimlarga 2025-yilning ikkinchi choragida oylik ustama pullarini to‘lab berish, sud qaroriga asosan tuman hokimligining mavjud qarzdorliklarini to‘lab berish, tuman hokimligi binosida faoliyat olib borayotgan qo‘riqlash hodimlarining oylik ish haqilarini to‘lab berish hamda ushbu xalq deputatlari tuman Kengashi qarorining **ilovasida** ko‘rsatilgan zaruriy xarajatlarni moliyalashtirib berish maqsadida tuman mahalliy byudjetining birinchi chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan jami bo‘lib **1 338,6 mln so‘m** mablag‘ ajratilsin.

Bunda, mazkur harajatlarni yo‘naltirishda loyiha-smeta hujjatlari o‘zgarishi va ko‘zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishda noaniqliklar yuzaga kelgan hollarda mablag‘lar miqdori va yo‘nalishlariga tuman hokimining farmoyishlari bilan o‘zgartirishlar kiritish hamda favqulodda va tezkor holatlarda mablag‘larni tuman hokimining qaror *(farmoyish)*lari asosida yo‘naltirish nazarda tutilsin.

4. Tuman hokimligi hisobxonasi (Mo‘ydinov)ga:

bunda ajratilgan mablag‘larni samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman moliya bo‘limi va g‘aznachilik bo‘linmasiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Begmatov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, **tuman G‘aznachilik hizmati bo‘linmasi (Ergashev)ga** to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Begmatov) bilan birgalikda tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari, jumladan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismidan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha **har chorak yakuni bilan** xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritilishini ta’minlasin.

7. Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta’minlab borishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib **tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Begmatov)** belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish **xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov** zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi M.M. Dexqonov

Xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashining
2025-yil 4-iyundagi
VII-13-115-11-162-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori asosida ajratilgan mablag‘larning belgilangan tadbirlar va maqsadlar uchun sarflanish miqdorlari

ming so‘mda

№	Kengash qarori bilan ajratiladigan mablag‘larning sarflanish maqsadi	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Jami talab etilayotgan mablag‘ miqdori	Ajratilayotgan mablag‘ manbasi
1.	Tumanning kirish hamda qo‘shni tumanlar bilan tutash qismlariga tuman nomini maxsus yozuvlar bilan tayyorlatish va amalga oshirilgan ta’mirlash ishlaridan mavjud qarzdlorliklarni to‘lab berish uchun	Tuman hokimligi	247 000,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
2.	Tuman madaniyat bo‘limidagi yosh askiyachilar jamoasini va to‘garak a’zolarini respublika ko‘rik tanloviga yuborish bilan bog‘liq xarajatlariga	Tuman madaniyat bo‘limi	3 800,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-martdagi PQ-5072-son qaroriga asosan Ochiq byudjet jamg‘armasiga yo‘naltirish uchun	Tuman hokimligi	402 000,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
4.	Tuman hokimligi ishchi-xodimlari uchun ikkinchi chorak davomida ularga oylik ustama pullarini to‘lab berish xarajatlariga	Tuman hokimligi	150 000,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
5.	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi ishchi-hodimlari uchun ikkinchi chorak davomida ularga oylik ustama pullarini to‘lab berish xarajatlariga	Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	80 000,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
6.	Tuman hokimligi bilan tuzilgan shartnomalarga asosan tuman hokimligining qo‘riqlash bilan bog‘liq xarajatlaridan, amalga oshirilgan xizmatlardan mavjud qarzdorliklarini to‘lab berish uchun	Tuman hokimligi	100 000,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
7.	Tuman hokimligi balansida bo‘lgan, xizmat	Tuman hokimligi	22 200,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi

№	Kengash qarori bilan ajratiladigan mablag‘larning sarflanish maqsadi	Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi	Jami talab etilayotgan mablag‘ miqdori	Ajratilayotgan mablag‘ manbasi
	avtomashinalariga yoqilg‘i moylash mahsulotlarini to‘lab berish hamda sotib olish xarajatlari uchun			chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
8.	Tuman hokimligi binosining ichki issiqlik tizimini yangilash, yangi isitish qozonlari sotib olish, isitish qozonlarini o‘rnatish ishlaridan mavjud qarzdorliklarni bir qismini to‘lab berish uchun	Tuman hokimligi	200 000,0	Tuman mahalliy byudjetining birirnchi chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan
9.	Tuman hokimligining “Elektron hokimyatni rivojlantirish markazi” rasmiy veb saytining abonent to‘lovini to‘lash xarajatlariga	Tuman hokimligi	23 606,0	Birirnchi chorak davomida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan
10.	Tuman hokimi o‘rinbosari D.Karabayevni viloyat delegatsiyasi tarkibida Afg‘oniston Islom Respublikasiga xizmat safariga yuborish xarajatlariga	Tuman hokimligi	16 500,0	Birirnchi chorak davomida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan
11.	Tuman hokimligi binosida faoliyat olib borayotgan qo‘riqlash hodimlarining aprel-iyun oylari uchun oylik ish haqilarini to‘lab berish xarajatlariga	Tuman hokimligi	63 000,0	Birirnchi chorak davomida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan
12.	Tuman hokimligida foydalanilayotgan internet tarmog‘ini abonent to‘lovini to‘lash hamda mavjud qarzdorliklarni bartaraf etish xarajatlariga	Tuman hokimligi	20 500,0	Birirnchi chorak davomida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan
13.	Tumanda tashkil etilgan “Axmad klubi” sport jamoasini O‘zbekiston chempionati oliy liga 3-tur baxslarida ishtirok etish xarajatlari uchun	Tuman hokimligi	10 000,0	Birirnchi chorak davomida yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan
UMUMIY JAMI		**XXXX**	**1 338 606,0**	**XXXX**